

ABDULLA QODIRIY ASARLARI TARJIMASINI QIYINLASHTIRUVCHI
OMILLAR XUSUSIDA



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2023-21-388-392>

DSc. **Hamidov Xayrulla Xudoyorovich**,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
«Tarjimashunoslik va xalqaro jurnalistika» kafedrası dotsenti
Tel: 90 960 06 23; E-mail: hamidovx@gmail.com

Annotatsiya

O‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi, atoqli adib Abdulla Qodiriyning asarlari dunyoning o‘nlab tillariga tarjima qilingan va bu boradagi ishlar davom etmoqda. So‘nggi yillarda adib romanlari xitoy tiliga ham tarjima qilinib nashr etildi. Ta’kidlash kerakki, adib romanlarining xorijiy tillarga tarjimalarining deyarli barchasi nuqson-kamchiliklardan xoli emas va buning asosiy sababi adib asarlarida uchraydigan “notanish”, ya’ni lug‘atlardan topilmaydigan so‘zlardir. Ushbu maqolada Qodiriy asarlaridagi o‘zbek tilining zamonaviy izohli lug‘atlarida uchramaydigan so‘zlar va ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar xususida so‘z boradi.

***Kalit so‘z va iboralar:** o‘zbek adabiyoti, badiiy tarjima, imlo lug‘ati, izohli lug‘at, tarjima lug‘atlari, leksik birlik, ko‘chma ma’no, badiiylik.*

Annotation

The works of the great figure of Uzbek literature, the famous writer Abdulla Qadiri, have been translated into dozens of languages of the world, and the work in this regard continues. In recent years, the author's novels have been translated into Chinese and published. It should be noted that almost all translations of literary novels into foreign languages are not without defects, and the main reason for this is the "unknown" words found in literary works, that is, words that cannot be found in dictionaries. This article talks about the words in Qadiri's works that are not found in modern explanatory dictionaries of the Uzbek language and the problems that arise in the process of translating them.

***Key words:** Uzbek literature, artistic translation, spelling dictionary, explanatory dictionary, translation dictionaries, lexical unit, figurative meaning, artistic.*

Mustaqillik yillarida dunyo xalqlari o‘zbek adabiyoti, madaniyatini tanidi. Bunda badiiy tarjimaning tutgan o‘rni nihoyatda muhim. O‘tgan 32 yil mobaynida o‘zbek adabiyotining o‘nlab yirik vakillari qalamiga mansub asarlar dunyoning eng ko‘zga ko‘ringan tillari: rus, ingliz, turk, nemis, xitoy, koreys, yapon, hind, arab, fors,

qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon va boshqa tillarga o‘girildi. Xorij bilan adabiyot sohasidagi aloqalarni kuchaytirish, o‘zbek adabiyoti, xalqimizning qadriyatlariga hurmat bilan qarayotgan xalqlarga nimalar taqdim etishimiz mumkinligi masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Ana shu davrda tarjima asarlari asrlar davomida xalqlarning madaniyati, an‘analari, urf-odatlar, turmush tarzi, milliy o‘ziga xosliklari haqida tasavvur hosil qilishda yanada muhim ahamiyat kasb eta boshladi.

Mustaqillik yillarida nafaqat tarixi va madaniyati bizga juda yaqin, bir til oilasiga mansub qardosh xalqlar, balki ma‘naviy, diniy va boshqa jihatlari bilan bizga unchalik yaqin tanish bo‘lmagan xalqlar, masalan, hind, xitoy, koreys, yapon va boshqa xalqlar bilan do‘stlik aloqalari badiiy tarjima sharofati bilan mustahkamlandi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Masalan, tarjimalarning salmoqli qismi turk ag‘darilgan asarlar bo‘lsa, boshqa tillar, jumladan, xitoy tiliga o‘zbek va xitoylik ijodkorlarning mehnati sharofati bilan tarjima qilingan asarlar ham anchagina. Bular orasida xitoy tiliga o‘girilib, O‘zbekistonda va Xitoyda nashr etilgan Abdulla Qodiriy [Qodiriy 2019], Oybek [Namozova 2023], Odil Yoqubov [Yoqubov 1982], O‘tkir Hoshimov [Hoshimov] singari atoqli o‘zbek adiblari qalamiga mansub mashhur asarlar ham bor¹. Bu asarlar tarjimashunoslik fani, tarjima tanqidi sohasiga katta material berdi.

Bugunga qadar e‘tibordan chetda qolib kelayotgan xitoy tiliga badiiy tarjimalar nazariyasi, tahlili va tanqidi, tarjima asarlarining sifat va saviyasini belgilash va tarjimlonlarning so‘z tanlash mahorati muammolari ilmiy tadqiqotlar kun tartibiga qo‘yildi. Adib asarlari tarjimasini qiyinlashtiruvchi omillar xususida aytish joizki, bugungacha tadqiq etilgan tarjima asarlarining deyarli barchasi nuqson-kamchiliklardan xoli emas va buning asosiy sabablaridan biri adib asarlarida uchraydigan “notanish”, ya‘ni zamonaviy lug‘atlardan topilmaydigan so‘zlardir.

Ushbu maqolada Qodiriy asarlaridagi o‘zbek tilining zamonaviy izohli lug‘atlarida uchramaydigan so‘zlar va ularni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan muammolar xususida so‘z boradi. Gap shundaki, o‘zbek tilida faol nutqda uchraydigan ayrim so‘z va iboralar izohli lug‘atlarda yo‘q, ayrimlarining esa ma‘nolari to‘la ochib berilmagan.

Ma‘lumki, tarjimon ikki til (asliyat va tarjima tili)ni mukammal biluvchi (zullisonayn) mutaxassis hisoblanadi. U qachon lug‘atsiz ishlash kerak, qachon lug‘atga murojaat qilish kerakligini yaxshi biladi. Ijodiy ish jarayonida duch kelinadigan barcha muammolarni yo‘l-yo‘lakay hal qilib ketaveradi. Biroq u matn

¹ Oybekning “Navoiy” romani ilk bor 1954 yilda xitoylik uyg‘urlar (Ne‘matulla Hoji va To‘xta Qosim) tomonidan uyg‘ur tiliga o‘giriladi va “Ikki hayot” jurnalining bir necha sonida e‘lon qilinadi. 2003 yilga kelib tarjima Muhammadturdi Mirzaahmadiy muharrirligida “Shinjon” xalq nashriyatida kitob holida uch ming nusxada chop etiladi. Roman xanzu tiliga ham tarjima qilinib chop etilgan (xanzucha – xitoy tili. Bu yerda uyg‘urchadan 1999 yilda xitoy tiliga amalga oshirilgan Xao Guang Jong tarjimasini haqida so‘z bormoqda. Xao Guang Jong yuqorida nomi qayd etilgan uyg‘urcha o‘girmaga asoslangan). “Navoiy” romani xitoy tiliga ikkinchi marta 2001 yili Vang Jeng Jong tomonidan o‘girilgan [Ziyamuhamedov].

tarjima qilayotganda baʼzan umrida ilk bor koʻrayotgan, eshitayotgan soʻzga roʻbaroʻ kelishi va lugʻatlarga murojaat qilishi, lekin oʻzi izlagan soʻzni hech qaysi lugʻatdan topa olmasligi mumkin.

Bir misol: – *Burni(ng) qora boʻldi, **huvari!** – deb ota iljaygan edi, ogʻzidagʻi onda-sonda qolgʻon nosvoy bilan koʻkargan **chugur** tishlar koʻrinib ketdi* [Qodiriy 1932]. Ushbu misolda belgilangan “*huvari*” va “*chugur*” soʻzlari oʻzbek tilining imlo lugʻatida ham, katta izohli lugʻatda ham berilmagan [OʻTIL 2007]. Jumlaning turkcha tarjimasini: *Baba “Burnuna kara deđdi, hüvari!” diye gülünce, nas tükürdüğünde dişlerinin arasında kalmış yeşilimsi lekeler göründü...* Bu yerda **huvari** soʻzini “*hüvari*” shaklida bir xos soʻz sifatida qoʻldirishdan boshqa choramiz yoʻq. Qolaversa, hozirgi oʻzbek tilida umuman qoʻllanilmay qoʻygan bu soʻzning nimani anglatishi maʼlum ham emas. Yaʼni izohli lugʻatlarda berilmagani uchun, soʻzning maʼnosi yopiqligicha qoladi. “**Chugur**” soʻzi ham lugʻatlarda yoʻq. Faqat oʻzbek tilining katta izohli lugʻatida ushbu soʻzga fonetik jihatdan oʻxshash **choʻgir** soʻzi borligini inobatga olish foydadan xoli boʻlmaydi (**ЧЎГИР** 1 айн. **чўгири. ЧЎГИРИ** Сарик ёки малларанг йўл-йўл, чизикли, олапўчоқ, эртапишар ширин маҳаллий қовун нави. *Чўғуру тилимидек олтинранг ой оҳиста сузар эду.* «Ешлик» [OʻTIL 2013]). Shuni hisobga olib, Qodiriy asaridagi “*chugur*” soʻzini izohli lugʻatdagi **чўғур** soʻzining shakli boʻlishi mumkin, deb xulosa qilish mumkin.

Bir tildagi soʻzlarni asos olib, ularning asosiy va koʻchma maʼnolari hamda boshqa soʻzlar bilan birga ifodalagan maʼnolari, farqli qoʻllanishlarini namoyon qiluvchi, tilning butun zahirasini oʻz ichiga oluvchi kitob – lugʻatdir. “Tarjima jarayonida umumlisoniy va umummadaniy bilimlar doirasidan chiqib ketadigan soʻz va iboralar uchraydiki, tarjimon maxsus lugʻatlarga murojaat qilishga majbur boʻladi” – deb yozadi taniqli tarjimashunos S.Florin [Florin 1971: 327].

Badiiy asarda, har qanday nutqda, matnda boʻlganidek, soʻz alohida holda toʻlaqonli maʼno kasb eta olmaydi. Har qanday soʻzning maʼnosi kontekst ichida ochiladi. Buni tarjima jarayonida tarjimon ham hisobga olsa, muammolarni yechish oson kichadi. Buni quyidagi misol orqali koʻrib chiqamiz: ...*Roziqqa taqilgʻon laqablardan “Poʻlagʻur” soʻzi, uning yaratilish sifatini yaxshi gavdalantirganlikdan biz ham bundan soʻng Roziqning asil ismini atamay “Poʻlagʻur” deb yurutamiz.* [Qodiriy 1932]. A.Qodiriyning “Quyosh bilan ham kurashaman” hikoyasidan olingan va oʻzbek tilining badiiy ifoda imkoniyatlari namoyon boʻlgan ushbu jumla – misolda ham bir “begona” soʻzni uchratamiz: “poʻlagʻur”. Bu soʻz ham imlo va katta izohli lugʻatda yoʻq. Shunga qaramay, kontekstdan uning maʼnosini taxminan uqib olish mumkin. Sinchiklab qaralsa, “*poʻlagʻur*” soʻzining oʻzbek tilining ayrim shevalarida uchraydigan, “*toʻliq boʻlmagan*” maʼnosidagi “*poʻla*” va “*pishmagan*”, “*xom*” maʼnosidagi “*gʻoʻr*” soʻzlarining qoʻshilishidan yuzaga kelganligini taxmin qilish mumkin. Jumlani turk tiliga quyidagicha tarjima qilgan maʼqul: *Razikʼa takilmış lakaplardan biri de "Polağur"du. Bize göre "Polağur" Razikʼa takilmış ve onun*

yaradilish sifatlarini tam qarshilayabilmiş lakapti. O yuzden biz Razik'ı bundan böyle "Polagur" diye çağıracağız.

Matnda uchraydigan soʻzlar ikki tilli yoki izohli lugʻatda berilmagan boʻlishi mumkinligi, eng mukammal lugʻatda ham muayyan olingan soʻzning barcha sinonimlari berilishi amri mahol. Bunday vaziyatlarda mohir tarjimon aslyat soʻzlarining sinonimlarini izlashi, aslyat uslubiga mos soʻzlar topishi lozim. Sinonimlardan foydalanish asar yozishda qanchalik muhim boʻlsa, uni boshqa tilde qayta yaratishda ham shunchalik muhimdir. Shuni ham taʼkidlash joizki, taniqli rus tarjimashunosi K.Chukovskiy aytganidek, «hech qaysi lugʻat jonli inson tilidagi nozik maʼno belgilariga yeta olmaydi. Shu boisdan, tarjimonning vazifasi, agar u haqiqatdan ham chin sanʼatkor boʻlsa, iloji boricha koʻproq xorijiy va ruscha soʻzlarning hech bir lugʻatda mavjud boʻlmagan muqobillarini izlab topishdan iborat» [Чуковский 1964:88].

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima jarayonida ijodkor lugʻatda uchramaydigan baʼzi soʻzlarga duch kelishdan tashqari, aslyatdagi leksik birliklarning hammasiga ham lugʻatlardan muqobil topa olmasligi tabiiy. Tarjimoni lugʻatsiz amalga oshirish qiyinligi rost, ammo faqat lugʻatga tayanib qilingan tarjimaning badiiylikdan yiroq boʻlishi ham sir emas. Shundan kelib chiqib va tajribaga tayanib oʻzbek tilining imlo va izohli lugʻatlarini har besh-oʻn yilda yangi soʻzlar va eskirib yoki nomaʼlum sabablar bilan lugʻatlardan chiqib ketgan yo boʻlmasa lugʻatlarga kirmay qolgan, badiiy asarlardagina uchraydigan soʻzlarni kiritgan holda qayta nashr etish taklif etiladi². Shundagina Qodiriy, Qahhor, Oybek kabi buyuk soʻz ustalarining asarlarini qiyinchiliksiz oʻgirish mumkin boʻladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCE)

[Qodiriy 2019] – Abdulla Qodiriy. Oʻtkan kunlar. 往昔 Wǎngxī. (Tarjimon: 邸小霞 Dǐ Xiǎoxiá). – 北京: 中国社会科学出版社, 2019. – 381 页。

[Qodiriy 1932] – Abdulla Qodiriy. Toshkent. 20 iyul 1932 y. (“Oʻzbek shoʻro adabiyoti”, 1932 yil, 3-son. 27-34-betlar).

[Yoqubov 1982] – Odil Yoqubov. Diyonat. 良心 Liángxīn. (Tarjimonlar: 粟周熊 Sù Zhōuxióng, 高昶 Gāo Chǎng). – 北京: 北京出版社, 1982. – 393 页。

[Hoshimov] – Hoshimov Oʻ. Dunyoning ishlari. 生活琐事 Shēnghuó suǒshì. (Tarjimon: Valiyeva Noiba). – Toshkent: TDSHU, 2021. – 180 bet; Nur borki, soya bor. 有光必有影 Yǒu guāng bì yǒu yǐng. (Tarjimonlar: Dildora Ismailova, 赵蓉 Zhào Róng, 管玉红 Guǎn Yùhóng). – Toshkent: “BAYOZ”, 2022. – 280 bet.

² Masalan, turk tilining izohli lugʻati har oʻn yilda, imlo lugʻatlari esa har 2-3 yilda qayta nashr etiladi. Ularda 10 mingdan boshlab 75 mingtagacha soʻzning imlosi beriladi.

[Namozova 2023] – Namozova G. “Navoiy” romanining xitoy tiliga tarjimalarida tarixiy-milliy koloritni saqlash muammosi. Fil.f.bo‘yicha PhD diss. – Toshkent, 2023. – 132 b.

[Ziyamumuhammedov] – Ziyamuhammedov J. “Navoiy” romani xitoy tilida. / Jahon adabiyoti. – Toshkent, 2006 y., №5. – B.143.

[Florin 1971: 327] – Флорин С. (Болгария), “Зарур кўлланмалар” мақоласи. Мастерство перевода. – М. “Советский писатель”, 1971. – С.327.

[Khomidov Kh.Kh 2021] – Khomidov Kh.Kh. Translation Of Common Words And Phrases In The Novel «Dats Gone By» Abdulla Kadiri // Current Research Journal of Philological Sciences. Volume-1, Issue-1, 2020. – R. 12-18 (№23, SJIF: 5.823). Khomidov Kh.Kh. Regarding The Transferense Of Metaphors In Uzbek Novels In Turkish Translations // Asian Journal of Multidimensional Research. Volume-9, Issue-4, 2021. – R. 200-205 (№23, SJIF: 7.699).

[Чуковский 1964:88] – Чуковский К.И. Высокое искусство. – М.: 1964.

[O‘TIL 2007] – Ўзбек тилининг изоҳли луғати. **Тўртинчи жилд.** – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти, 2007.